

**SHARQ VA JAHON PEDAGOGIKASINING TARBIYAGA OID
TAJRIBALARINI O'RGANISH DOLZARB MASALA SIFATIDA
КАК ВАЖНЫЙ ВОПРОС ИЗУЧЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО
ОПЫТА НАРОДОВ ВОСТОКА И МИРА
AS AN IMPORTANT ISSUE OF STUDYING THE EDUCATIONAL
EXPERIENCE OF THE PEOPLES OF THE EAST AND THE WORLD**

Rafikova Dilafruz Kaxxoraliyevna¹

Abdug'aniyeva Madina O'ktamjon qizi²

¹*Farg'onan davlat universiteti, p.f.b.f.d.(PhD)*

²*Pedagogika va psixologiya fakulteti*

23.143-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada: sharq pedagog olimlarining pedagogik qarashlari va jahon xalqlari pedagogikasining tarbiyaga oid tajribalarini o'rghanishning dolzarb masalalari to'g'risida samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan. Olimlarning didaktik qarashlari misollar asosida isbotlangan.*

Kalit so'zlar: Tarbiya, fan, pedagogika, tarix, yondashuv, jahon, xalqlar, masala, bilim, tadqiqot, metod, ko'nikma.

Аннотация: В данной статье раскрываются важные аспекты эффективного использования педагогических взглядов восточных ученых-педагогов и актуальные вопросы изучения педагогического опыта народов мира. Дидактические взгляды ученых доказываются на основе примеров.

Ключевые слова: Образование, наука, педагогика, история, подход, мир, народы, проблема, знание, исследование, метод, умение.

Annotation: *This article reveals important aspects of the effective use of the pedagogical views of Eastern scientists and teachers and topical issues of studying the pedagogical experience of the peoples of the world. The didactic views of scientists are proven on the basis of examples.*

Key words: Education, science, pedagogy, history, approach, world, peoples, problem, knowledge, research, method, skill.

O'zbekiston ta'limgizda, jumladan, oliy ta'limgizda tarbiya asoslarini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rghanish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

bo'lajak o'qituvchilarining fanlarni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini o'rGANISH zaruriyati belgilanadi:

Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya xaqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita etib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning «hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi» ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari: Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlari, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy voqealarini ifoda etuvchi komusiy yodgorlik namunasi bo'lmish «Avesto»; afsonaviy qaxramonlar tasvirlangan dostonlar ya'ni, «Alpomish», «Manas», «Shiroq», «To'maris», «Go'ro'g'li», «Murodxon», «Ravshan», shuningdek qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» asarlari, Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Urxun-Enisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va shular orqali bizgacha etib kelgan. Bu yodgorliklar insonning shaqlanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jixatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shaqlana borishi ham, o'z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o'z-o'zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish, inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shaqlana borganligi xaqida to'la tasavvur xosil qilishga imkon beradi.

Tarbiyalash manbalari va ularni o'rGANISH bo'lajak o'qituvchi uchun eng muhim zaruriyat bo'lib hisoblanadi. Bu borada o'zbek pedagogikasi tarixida tarbiyaga oid muhim yondashuvlar bayon qilingan. Bularidan "Avesto" kitobida yosh avlodni Ezgu niyatli, Ezgu fikrli va Ezgu faoliyat(amal)li shaxslar sifatida voyaga yetkazish alohida ta'kidlangan.¹⁴ Keyinchalik bu pedagogik tamoyillar jahon xalqlari tarbiya jarayonida qabul qilingan. Misol uchun, bu tamoyillar milliy pedagogikamizdan tashqari XIX asrda Germaniya pedagogikasida asosiy tamoyillar sifatida belgilangan.¹⁵ Shu sababli mazkur tamoyillar hozirgi zamon tarbiya jarayonida ham amaliyotga tadbiq etilmoqda. Masalan, yangi milliy g'oyamizning ikkinchi tamoyili Ezgulikdir.¹⁶

Qur'oni Karimda va Hadisi shariflarda yoshlarni E'tiqodli, Yaxshilik va Yomonlikni farqlash ruhida tarbiyalash ta'limi berilgan. Buning natijasida VIII asrdan boshlab to hozirgi kunga qadar pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan

¹⁴ Авесто. – Тошкент, 2001.

¹⁵ З.Фрейд. Менинг Заруштим. – Тошкент, 2006.

¹⁶ Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий гоямизнинг пойдеворидирю – Тошкент, 2021.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

biri bo'lib kelmoqda. Chunki, e'tiqodli, yaxshilik va yomonlikni farqlovchi shaxs insonparvar, xalqparvar va vatanparvar kishi sifatida faoliyat yuritadi.

XI asr mutafakkiri Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida yoshlarni Adolatli, Qanoatli va Bilimli qilib voyaga yetkazish metodologiyasini asoslab bergan. Uning yozishicha, bunday fazilatlarga ega inson eng yetuk hisoblanadi.

"Qutadg'u bilig" - baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lism degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta'lism-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi.¹⁷ U "Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir"-deb ta'kidlaydi.

M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida esa ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik xushhulqlik, mardlik va jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab, inson shaxsini shaqlantirishda ta'lism-tarbiyaga katta e'tibor berganligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, pand-nasixatlarda asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini xurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olish maslaxat beriladi. «Devonu lug'atit turk» asarida insoniy fazilatlarning ajralmas qismi xushhulqlik aloxida ajratib ko'rsatiladi. Har bir inson egallashi lozim bo'lgan ezgulik-yaxshilik, umum manfaati uchun mehnat qilish hushxulq insonga xos fazilat ekanligi uqtiriladi:

Ulug'liging oshsa agar.

Xushhulq bo'lg'il.

Bek yonida xalq uchun xo'b ish qilg'il.¹⁸

Abu Nasr Farobi yattadi: «Ta'lism-degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir». Ta'lism faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishdir", - deydi. Forobiya ta'lism-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har

¹⁷ Y.X.Hojib. Qutadg'u bilig. -T. Cho'lpon nashriyoti. 2007-yil

¹⁸ Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk. I-t. 95 bet

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi. Farobiy pedagogik ta’limotining asosida kamol topgan insonni, shakllantirish insonning o‘z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlар jarayonida komillika erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Abu Ali Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga dav’at etadi. Chunki, ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonuniyatlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga etishish uchun inson kiyinchiliklardan qo‘rmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar!" "Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir" – deb ta’kidlaydi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Chunki, inson avvalo, oilada kamolotga etadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e’tibor beradi. Oila munosabatlariiga to‘xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o‘rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta’sirini ta’kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug‘laydi va qimorboz, sudxo‘r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham ruhiy tomondan salbiy ta’sir etishini to‘g‘ri talqin etadi. Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga etishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa Ibn Sinoning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan bo‘lib hisoblanadi. Olim inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyaning o‘zaro aloqada amalga oshirishning ilmiy ta’limotini, usullarini yaratib, ta’lim-tarbiya sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Uning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug‘laydi, undagi qudratga ishonadi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ‘ib qildi.

Sohibqiron Amir Temur “Tuzuklar” asarida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash masalasini talqin qilgan va bunda shaxsda murosa (kompramiss) fazilarini shakllantirish lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yetuk shaxs do‘stu - dushman bilan murosa qiladi. Do’stga murosa qilish tushunarli, lekin dushmanga murosa qilish qanday bo‘ladi? Dushman bilan murosa qilish shaxsning aqliy va axloqiy yetukligini bildiradi.

Alisher Navoiy tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo‘yish, ilmu adab o‘rgatish, ota-onaga, umuman kattalarga xurmat xissini singdirishdan iboratligini uqtiradi. U “Hamsa” asarida bir qator komil insonlar timsolini tavsiflab bergan. Misol uchun, “Farhod va Shirin” dostonida Farhodni 9 yoshida komil inson bo‘lib yetishganini va buning uchun u eng yetuk ustozlardan saboq olganligini tasvirlaydi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

Shirin esa o‘z davrining eng axloqiy, aqliy va estetik yetuk kishi sifatida taqdim etiladi. Ular bunday komillikka yoshligida olgan tarbiyalari tufayli yetishgan.

Jadid mutafakkiri M.Behbudiy “Padarkush” pedagogik dramasida bilim olmagan bolaning padarkush bo‘lib yetishini tasvirlab bergan. Chunki, bilim tarbiyaning ilmiy va nazariy asosi hisoblanadi.

Keltirilgan manbalardan ma’lum bo‘ladiki, tarbiya jarayonida shaxsda bir talay fazilatlar, tamoyillar va g‘oyalarni shakllantirish lozim bo‘ladi. Har qanday tarbiya jarayonida bu pedagogik merosga tayaniladi.

Jahon xalqlari pedagogikasida bir qator tarbiyaga oid tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o‘rinda ularning eng muhimlariga diqqatingizni tortamiz. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida yosh avlodni o‘qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayoni shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg‘ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e’tibor qaratiladi.

Fransuz pedagogi Jan Jak Russo “Emil” asarida oila tarbiyasi masalasini talqin qilib bergan. Uning fikricha, oilada bola tarbiyasi bilan oilaning eng yetuk a’zosi shug’ullanishi kerak. Pedagog bu borada onalarning tarbiyaviy o’rnini alohida ta’kidlaydi va Emil ismli onaning o‘z farzandini qanday tarbiyalaganligini, bu ayol “Kundaliklar” tutib borganligini ko‘rsatib beradi. Shu ma’noda tarbiya ishi bilan shug’ullanuvchi shaxsning kundaliklari bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shved pedagogi Iogan Genrix Pistalotsi “Erudiga maktablar” asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan. Hozirgi kunda butun dunyo xalqlarida amalda bo‘lgan savodxonlikni Alifbedan boshlash tizimini aynan Pistalotsi asoslab bergan.

AQSh pedagoglari, masalan Jon Jems, tarbiyada pragmatism, ya’ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo‘yishadi. Unga ko‘ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, fazilatlar va ko‘nikmalar shakllantirilishi kerakligini ta;kidlab o’tadi.

Akademik A.N.Leontyev: «Dunyonidagi idrok qilishning birinchi sharti faoliyat, ikkinchi sharti tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, hayotiy kurashning asosiy sharti», deb ta’kidlaydi. Ya’ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo‘naltirilgan harakat hisoblanadi.

Atoqli rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy aytganidek, “Yomon bola yo‘q, faqat yomon tarbiyachi bor, xolos” deb ta’kidlaydi. Bola ruhiyati va madaniyatidagi nuqsonlarni o‘z vaqtida payqab, ularni bartaraf etish tadbirlarini izlash va mohirona ish yuritib, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish orqali, shubhasiz, samarali natjalarga erishish mumkin.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

Buning uchun ruhiyat va pedagogika fanlariga asoslangan holda ish yuritish ko‘zlagan maqsad sari yetaklaydi.

K.D.Ushinskiy «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» hamda «Pedagogika adabiyotining foydasi» nomli risolasida Ota-onas uchun pedagogik bilim dastlab pedagogik adabiyotlar o‘rganishdan boshlanadi. Bola tarbiyasidagi bilim xalq ruhi bilan sug‘orilgan-xalqchilik g‘oyasiga asoslangandagina ota-onas bilimdon tarbiyachilik san‘atiga ega bo‘la oladilar», «Tarbiyalash ishi, shubxasiz, insonning aqliy va ongli faoliyatlaridan biridir: tarbiya tushunchasining o‘zi tarixan vujudga kelgan va u tabiatda yo‘q narsadir. Tarbiyalash faoliyati fikr yuritishni, xaqiqatni anglashni ham o‘rgatadi»- deyilgan.

Mazkur masalalardan ma’lum bo‘ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajibasida ko‘p hollarda tarbiyaning amaliy jihatlariga e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda ham bo‘lajak o‘qituvchilarni ana shu tajribalarni o‘rganishi, o‘zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo‘llay olishi taqozo etiladi. Shu sababli bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida mazkur sharq va jahon xalqlari pedagogikasining tarbiyaga oid tajribalarini o‘rganish masalasi va uning metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki, hozirgi zamon xalqaro ta’lim dasturlari va talablari aynan Yevropa, Osiyo va Amerika qit’alarida yashovchi xalqlarning pedagogigik tajribalariga asosan ishlab chiqilgan.

Masalan, Sharq xalqlari pedagogikasidan Ustoz-shogird tajribasi butun dunyo xalqlari tarbiya jarayoniga tadbiq etilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta’limi xodimlari oldida xozirgi kunda eng muxim vazifa - mustaqil O‘zbekistonning xozirgi ta’lim tizimlarini istiqlol ruxi bilan takomillashtirish, uni o‘zimizning mumtoz pedagogika an’analari bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilgor jixatlarni o‘zlashtirish, yangi - yangi samarali o‘quv predmetlarini ta’lim tarkibiga kiritish bilan jaxon davlat standartlari darajasiga olib chiqishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg‘or tajribalarni ta’lim tizimimizda qo‘llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunonchi :

Agar biz AQSh pedagogikasidagi:

- a) bolani o‘z kuchi imkoniyatiga ishonch ruxida tarbiyalash;
- b) o‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash;
- v) bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarni va g‘ururini yerga urmaslik;
- g) o‘quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo‘naltirish;
- d) Vataniga faxr va iftixon ruxida tarbiyalash va x.k

Yaponiya ta’limidagi:

- a) bolani maktabga puxta tayyorlash

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

- b) kichkintoylar ta'lismi va tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kuchaytirish;
- v) o'quvchilarni nafosat, jismoniy kamolatiga berilayotgan e'tibor;
- g) o'qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;
- d) yosh talant soxiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Germaniya ta'limidagi:

- a) tabaqalashtirib o'qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor;
- b) o'quvchilarining mehnat ta'limini mustahkamlash;
- v) kasbga yo'naltirish.

Fransiya ta'limidagi:

- a) mактабгача тарбияданоқ о'кувни предметлаштириб ташкил этиш;
- b) бoshlang'ich ta'lismi uch bosqichda puxta amalga oshirish;
- v) o'кувни didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan kata e'tibor;
- g) o'кув muassasalarining turli firmalar, konsernlar, korxonalar mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limiga ham ko'chsa, bizning pedagogikamiz olg'a qarab dadil qadam bosgan bo'lar edi.

Albatta, ta'limga har qanday yangilik, o'zgartirish jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. «Zo'r lab tiqishtirish» bizning uslubiyot emas. Ayni paytda ta'limni bir saviyada qotib qolishiga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli ham, har bir pedagog, har bir tadqiqotchi maorifimiz uchun jon kuydiradigan, mustaqil fikr yuritadigan, dunyoqarashi keng iqtidorli kadrlarni tayyorlashimiz kerak.

Bularning barchasi bo'lajak pedagoglar uchun muhim kasbiy kompetensiya hisoblanadi?

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий гоямизнинг пойдеворидирю – Тошкент, 2021.
2. Авесто. – Тошкент, 2001.
3. З.Фрейд. Менинг Заруштим. – Тошкент, 2006.
4. Y.X.Hojib. Qutadg'u bilig. -T. Cho'lpon nashriyoti. 2007-yil
5. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk. I-t. 95 bet
6. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.
7. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.
8. Азимов У. А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКСИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ //ТОШКЕНТ-2021. – 2021. – С. 102.
9. Azimov U. A. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AKSIOLOGIYA //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 13. – С. 201-204.
10. Azimov U. YOSHLARNING DEMOKRATIK ISLOHOTLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI TAHLILI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 195-195.